

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARINI TUZILMAVIY BOSHQARUV USULLARI

Olimjonova Odina Hasanxon qizi

Namangan Davlat Pedagogika instituti o'qituvchisi, PhD

E-mail: olimjonovaodinaxon820@gmail.com

+998999772203

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarini strukturaviy boshqarish, MTT direktorining pedagog xodimlar bilan hamkorlikda ishlashi, ularning lavozimiy vazifalari, MTT ni boshqaruv tuzilmasi va uni ta'lim jarayonlari samaradorligini ta'minlashdagi imkoniyatlari xususida so'z yuritiladi.

Tayanch tushunchalar. Maktabgacha ta'lim, tuzilma, strukturaviy boshqaruv, direktor, pedagog, ma'muriy, iqtisodiy, psixologik-pedagogik, tashkiliy, nazorat va baholash, ilmiy-metodik va ijtimoiy-psixologik usullar, xodimlar.

МЕТОДЫ НЕСТРУКТУРИРОВАННОГО УПРАВЛЕНИЯ ДОШКОЛЬНЫМИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫМИ ОРГАНИЗАЦИЯМИ

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы структурного управления дошкольными образовательными организациями, взаимодействие директора ДООУ с педагогическими работниками, их должностные обязанности, управленческая структура ДООУ и её возможности в обеспечении эффективности образовательных процессов.

Ключевые понятия. Дошкольное образование, структура, структурное управление, директор, педагог, административные, экономические, психолого-педагогические, организационные, контрольные и оценочные, научно-методические и социально-психологические методы, сотрудники.

METHODS OF UNSTRUCTURED MANAGEMENT OF PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS

Abstract. This article discusses the structural management of preschool educational institutions, the cooperation of the preschool institution director with pedagogical staff, their job responsibilities, the management structure of the preschool institution, and its potential in ensuring the effectiveness of educational processes.

Key concepts. Preschool education, structural management, director, pedagogue, administrative, economic, psychological-pedagogical, organizational, monitoring and evaluation, scientific-methodical and socio-psychological methods, staffes.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida "maktabgacha ta'lim tizimiga soha xodimlarini oliy

ma'lumotli kadrlar etib tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish, tanlab olish va rivojlantirishga mutlaqo yangi yondashuvlarni joriy etish" masalasiga alohida e'tibor qaratildi[1]. O'zbekiston Respublikasining «2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan yangi o'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi»da ham maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish maqsadida MTT xodimlarining professional tayyorgarligi va mahoratini oshirib borishning takomillashtirilgan tizimini joriy etish zarurligi ko'rsatib o'tilgan[2].

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari boshqarish tizimini takomillashtirish, jamoat boshqaruvi shakllarini rivojlantirish, bunda MTT rahbarlari va tarbiyachilarining faoliyatini ilmiy asosda tashkil etish hamda zamonaviy boshqaruv texnologiyalarini qo'llash, boshqaruv samaradorligini oshirishda innovatsion metodlar va usullardan foydalanish zaruriyati tug'ilayotgani va bu o'z o'rnida ixtiyoriy rahbar va tarbiyachining bilimi, ko'nikma va malakasi hamda tajribalariga, ya'ni bir so'z bilan aytganda kasbiy kompetentligiga bog'liqligi, ta'lim tashkiloti faoliyatini innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish, ta'lim tashkilotida qulay ta'limiy muhitni tashkil etish, ya'ni innovatsion ta'limiy muhitni vujudga keltirish bo'yicha zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lish zaruriyatining belgilayotganligi maktabgacha ta'lim jarayonlari samaradorligini ta'minlashda strukturaviy yondashish masalasi dolzarb muammo ekanligini ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ta'lim tashkilotlarini turli yondashuvlar asosida boshqarish va boshqaruvchi turli tadqiqotchilar tomonidan muntazam tadqiq etib kelinmoqda.

A.A.Bagdanov "Tektologiya" asarida rahbarni yagona boshqaruv jarayoning harakatlantiruvchisi sifatidagi an'anaviy qarashni qoralab, nazoratchi sifatida rahbar shaxsiyatining qo'l ostidagi xodimlarga ta'sir qila olishini rad etadi. Bu turdagi talqin "rahbar – xodim" tizimini rivojlantirishni mutlaq farqli metodologik yo'lini belgilab berdi. Shu tariqa tashkilot vazifalarini hal eishda "holat - faoliyat", "obyektivlik – subyektivlikning yagonaligi", rahbarning xodimga "bevosta ta'sir" etishi tushunchalari yuzaga chiqdi.

F.Abdiyeva [6] tadqiqotlarida maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorida boshqaruv madaniyatining rivojlanganligi, maktabgacha ta'lim tizimining

integrallashgan mazmuniga zamonaviy yondashuvlarni singdirish, mutaxassislarni malaka oshirish jarayonida boshqaruv kompetentsiyalarini rivojlantirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlari bilan hududiy hamda xorijiy maktabgacha ta'lim malaka oshirish tashkilotlari o'rtasida uzluksiz hamkorlikni kuchaytirish masalalari nazariy va amaliyot jihatdan tahlil etilgan.

Tadqiqotchi H.N.Supkhonovna [5] esa maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat olib borayotgan rahbar va pedagog kadrlarning variativ yondashuvni amaliyotga joriy etish bo'yicha kompetensiyalarini rivojlantirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida variativ yondashuvli ta'lim dasturlarini amaliyotga samarali joriy etish uchun maxsus metodik qo'llanmalar va tavsiyanomalar ishlab chiqish hamda zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari va multimedia vositalaridan keng foydalanishni tavsiya qilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotini strukturaviy boshqaruv usullari va jarayonda samarali boshqarishni tashkil etish, maktabgacha ta'lim jarayonini strukturaviy boshqaruv va unga turlicha yondashuvlar xususida so'z yuritiladi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Maktabgacha ta'lim tizimini yaxlit uzluksiz ta'lim tizimining muhim bo'g'ini sifatida yanada takomillashtirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish hamda moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni har tomonlama intellektual, ma'naviy-estetik va jismoniy rivojlantiruvchi zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etish, ularning maktabga tayyorgarlik darajasini tubdan oshirish maqsadida 2018-yil 30-sentabrda PQ-3955-sonli "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"[3]gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorining qabul qilinishi bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarini boshqarishga yangicha yondashuv zaruriyatini belgilab beradi. Bu yondashuv maktabgacha ta'lim tashkilotlarini strukturaviy boshqarish samaradorligi bilan bevosita bog'liq.

Boshkarish strukturasi deganda boshqaruv maqsadlarini amalga oshiruvchi va funksiyalarni bajaruvchi bir-biri bilan bog'langan turli boshqaruv organlari va bug'inlarining majmui tushuniladi.

Boshqarishning u yoki bu vazifalarini xal ilish uchun muayyan organlar tuziladi. Boshqarish organlari tizimi, quyi organlarning yuqori organlarga bo'ysunishi va ular o'rtasidagi o'zaro aloqa boshqarish strukturasi tushunchasini tashkil qiladi. Bunday struktura odatda "boshqaruv apparat strukturasi deb yuritiladi. U biron-bir boshqaruv organining (maktabgacha ta'limning boshqaruv apparati x.k) bo'limlari tarkibini bildiradi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotini (MTT) strukturali boshqarish usullari — bu boshqaruv jarayonida samarali va barqaror ishni ta'minlash uchun qo'llaniladigan turli usullar majmuasi. Boshqaruv usullari tashkilot faoliyatini rejalashtirish, muvofiqlashtirish, nazorat qilish va xodimlarning samarali faoliyatini ta'minlashga qaratilgan. Quyida MTTni boshqarishda qo'llaniladigan asosiy usullarni ko'rib chiqamiz.

1. Ma'muriy usullar. Ma'muriy boshqaruv usullari tashkilotning ichki tartib-qoidalariga asoslangan va xodimlar va tarbiyalanuvchilar faoliyatini to'g'ridan-to'g'ri nazorat qilish va yo'l-yo'riq berishni nazarda tutadi. Topshiriq berish: MTT rahbari (direktor) va uning o'rinbosarlari xodimlarga aniq topshiriqlar va vazifalar yuklaydi. Ichki tartib-qoidalar: Ish va ta'lim jarayonini tartibga soluvchi qoidalar va ichki hujjatlar ishlab chiqiladi. Nazorat va hisobot: Xodimlar faoliyatini muntazam nazorat qilish va hisobot berish talab qilinadi.

2. Iqtisodiy usullar. Iqtisodiy boshqaruv usullari resurslardan samarali foydalanish, iqtisodiy rejalashtirish va xarajatlarni nazorat qilishga asoslanadi. Bu usullar tashkilotning moliyaviy barqarorligini ta'minlash va moddiy manbalardan oqilona foydalanishni ko'zda tutadi. Byudjetni rejalashtirish: MTT byudjetini aniq rejalashtirish va uning daromad va xarajatlarini to'g'ri taqsimlash. Mukofotlash: Xodimlarning yuqori natijalari uchun iqtisodiy mukofotlar yoki rag'batlantiruvchi to'lovlar berish. Resurslarni samarali boshqarish: Oqilona resurs sarflash va keraksiz xarajatlarni kamaytirish.

3. Psixologik-pedagogik usullar. Bu usullar asosan o'qituvchilar va tarbiyachilarning pedagogik mahoratini oshirish va ularning bolalar bilan ishlashdagi samaradorligini ta'minlashga qaratilgan. Motivatsiya: Xodimlarning faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatish uchun turli rag'batlantiruvchi mexanizmlar joriy etish. Ilmiy-metodik yordam: Pedagoglarning doimiy kasbiy rivojlanishi uchun metodik qo'llanmalar va ta'lim jarayonini yaxshilash bo'yicha maslahatlar berish. O'zaro muloqot: MTT xodimlari o'rtasida ijtimoiy-ruhiy muhitni yaratish, tarbiyachilar o'rtasida doimiy muloqot va o'zaro yordamni rivojlantirish.

4. Tashkiliy usullar. Tashkiliy boshqaruv usullari ta'lim jarayoni va tashkilotning umumiy faoliyatini muvofiqlashtirish va rejalashtirishga qaratilgan. Bular quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi: Rejalashtirish: Tashkilotning strategik va taktik rejalarini ishlab chiqish, shu jumladan yillik ta'lim dasturlarini tayyorlash. Vazifalarni taqsimlash: Har bir xodimning vazifalarini aniq belgilash va ularni maqsadli yo'nalishlarda taqsimlash. Hamkorlikni tashkil qilish: Hodimlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni muvofiqlashtirish, jamoaviy ishni rivojlantirish.

5. Nazorat va baholash usullari. Nazorat qilish va baholash usullari MTTdagi ta'lim-tarbiya jarayoni va xodimlarning faoliyatini kuzatish va tahlil qilish uchun qo'llaniladi. Ta'lim sifati monitoringi: Bolalarning ta'lim jarayonida erishgan natijalarini muntazam baholash. Xodimlar faoliyatini baholash: Pedagoglar va boshqa xodimlarning ish samaradorligini baholash, ularning ish sifati haqida muntazam ma'lumot yig'ish. Jarayonlarni tahlil qilish: Tashkilotning umumiy faoliyatini tahlil qilish va rivojlantirish yo'nalishlarini belgilash.

6. Ilmiy-metodik usullar. Ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish uchun ilmiy-metodik yondashuvlar juda muhim. Bu usullar zamonaviy ta'lim standartlari va metodlarini joriy etishga asoslanadi. Ilmiy tadqiqotlar va yangiliklardan foydalanish: Zamonaviy ta'lim metodlari va tadqiqotlarning natijalarini ta'lim jarayoniga tatbiq etish. Pedagoglarning kasbiy rivojlanishi: Hodimlarni muntazam ravishda malaka oshirish kurslariga yuborish va ularning pedagogik mahoratini rivojlantirish.

7. Ijtimoiy-psixologik usullar. Bu usullar ijtimoiy-psixologik boshqaruv usullari xodimlar va bolalar o'rtasida sog'lom ijtimoiy muhit yaratishga qaratilgan. Jamoaviy

ishlarni rivojlantirish: Hodimlar o'rtasida birgalikda ishlash madaniyatini shakllantirish. Ota-onalar bilan hamkorlik: Ota-onalarni ta'lim jarayoniga jalb qilish va ular bilan doimiy muloqot o'rnatish.

Yuqorida ko'rsatilgan strukturaviy(tuzilmaviy) boshqaruv usullari boshqaruvda xususiy tarkiblarning murakkabligi va keng qamrovliga aloqadorligi bilan ajralib turadi. Shu bois, maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori birinchi navbatda, pedagogik ixtisoslikka, ikkinchi navbatda, pedagogik jamoaning psixologik tuzilishini (ierarxiasini) bilishi lozim. Ta'lim tizimida boshqaruv deganda, joriy pedagogik tizimning bir holatdagi mavjud faoliyatini boshqa bir holatga, ya'ni ideal faoliyatning holatiga o'tishini ta'minlash uchun mavjud resurslarni yo'naltirishni amalga oshirish uchun bajariladigan ongli harakatlarning ketma-ketligi tushuniladi.

Fikrimizcha, bunda uchta jihatga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir:

	3 ta muhim jihat	Rahbar kompetentligi
1	pedagogik tizim faoliyatining psixologik barqarorligini saqlash	Umumiy
2	pedagogik tizimning yangi sifat bosqichiga o'tishini ta'minlash uchun amalga oshiriladigan harakatlar natijasida uning faoliyatidagi o'zgarish dinamikasida ijobiy ko'rsatkichlarning ifodalanganligi	umumiy ijtimoiy
3	pedagogik jamoa faoliyatining samaradorligini ta'minovchi psixologik (rahbar shaxsi, jamoa a'zolarining rahbar va o'z kasbiga bo'lgan munosabati) omillar	umumiy, ijtimoiy, kasbiy kompetentsiyalar

Maktabgacha ta'lim tashkilotini samarali boshqarish bugungi kunda muhim va dolzarb masala sifatida ko'rilmogda. Shu bois, O'zbekistondagi barcha davlat MTT larida yangi **direktor o'rinbosari** lavozimi joriy qilinmogda. Bu ish sifatini oshishiga hamda samarali boshqarishga yordam beradi. Ta'lim tashkilotining

tuzilishi maktabgacha ta'lim tashkiloti tomonidan hal qilinadigan vazifalarga mos keladi, maktabgacha ta'lim tashkilotining boshqaruv mexanizmi uning barqaror ishlashini belgilaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

MTTni tuzilmaviy boshqarish usullari tashkilotning turli sohalarini samarali boshqarishga yo'naltirilgan. Bu usullar orasida ma'muriy, iqtisodiy, tashkiliy va psixologik-pedagogik usullar muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular tashkilotning barqaror faoliyatini ta'minlash va bolalar uchun sifatli ta'lim muhitini yaratishga yordam beradi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti jarayonlarini strukturaviy boshqarishda tashkilotning har bir a'zosini funksional vazifalari aniq belgilab qo'yilgan bo'lib, bu ularga boshqaruv qarorlarini qabul qilishda mustaqillikni amalga oshirishga yordam beradi va ularning faoliyati uchun mas'uliyatni oshiradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yuqori kasbiy kompetensiyalarga ega, o'zgaruvchan boshqaruv texnologiyalarini yaxshi biladigan va bolalar, ota-onalar, MTT xodimlari va jamoatchilik bilan samarali hamkorlik qiladigan boshqaruv jamoasining shakllanishi maktabgacha ta'lim jarayonlari samradorligini ta'minlashda muhim omil sifatida xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PQ-4312–son qarori
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-5198-son farmoni
4. *O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim Vazirining 2021 yil 30 dekabrdagi 255-sonli "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim tizimi xodimlari asosiy lavozimlarining malaka tavsiflarini tasdiqlash to'g'risida"gi buyrug'i.*
5. Supkhonovna H. N. Technology for the development of the qualities of pedagogical competence in future teachers //ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH. – 2021. – T. 10. – №. 5. – S. 372-382.
6. Abdieva F. Science and innovation international scientific journal volume 1 issue 8 uif-2022: 8.2 | issn: 2181-3337